

IMOM G'AZZOLIYNING "TAVBA" ASARIDA DIN VA AXLOQ MASALALARI

Abdukarimova Rayxona Umidjon qizi

Termiz davlat universiteti 1 - kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19054943>

Annotsatsiya. Ushbu maqolada Abu Hamid al-G'azzoliyning "Tavba" asarida din va axloq masalalarining o'zaro uyg'unligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda tavba tushunchasi insonning ma'naviy poklanishi va axloqiy kamolotga erishish jarayoni sifatida talqin etiladi. Maqolada tavbaning Qur'on va hadis manbalari asosidagi sharhi, uning tasavvufiy-falsafiy mohiyati hamda inson kamolotidagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, asarda din va axloqning ajralmas birlikda talqin qilinishi, tavbaning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishdagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: tavba, din, axloq, qalb poklanishi, ma'naviy kamolot, tasavvuf, nadomat, taqvo, islom axloqshunosligi, ruhiy isloh.

Abstract. In this article, Abu Hamid al-Ghazzali's "repentance" provides a scientific-theoretical analysis of the harmony of issues of religion and morality. In the work, the concept of repentance is interpreted as a process of spiritual purification of a person and the achievement of moral perfection. The article reveals the interpretation of repentance on the basis of the sources of the Quran and Hadith, its mystical-philosophical essence and its place in human perfection. The work also highlights the interpretation of religion and morality in an integral unity, the role of repentance in the formation of personal and social responsibility.

Keywords: repentance, religion, morality, purification of the soul, spiritual perfection, mysticism, piety, piety, Islamic ethics, spiritual reform.

ВОПРОСЫ РЕЛИГИИ И МОРАЛИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ИМАМА ГАЗАЛИ "ТАВБА"

Аннотация. В этой статье научно-теоретически анализируется взаимосвязь вопросов религии и морали в труде Абу Хамида аль-Газали "покаяние". В работе понятие покаяния трактуется как процесс духовного очищения и нравственного совершенствования человека. В статье раскрывается толкование покаяния, основанное на источниках Корана и хадисов, его мистико-философская сущность и роль в созревании человека. Работа также освещает интерпретацию религии и морали в неразрывном единстве, роль покаяния в формировании личной и социальной ответственности.

Ключевые слова: исламская покаяние, религия, мораль, очищение души, духовное совершенство, мистицизм, надомат, благочестие этика, духовная реформа.

Abu Homid G'azzoliyning otalari go'dakliklarida vafot etadi. Vasiyatga ko'ra, yosh Zayniddin va akasi Ahmadni otalarining do'sti voyaga yetkazib, tilovati, irshod va nasihatga ajratdilar. Imom G'azzoliy hijriy 505, milodiy 1111-yilda Haq ta'loning o'qitadi. Madrasani tamomlagan G'azzoliy yetuk ulamolarda, xususan, Shayx Ahmad ibn Muhammad Rozaqoniy qo'lida tahsil oladilar. So'ng Jurjonga borib shayx Abdulqosim Ismoilidan ilm oladilar. So'ng Nishopurga kelib, Haramayn imomi Abul Ma'oliyni lozim tutadilar. Imom G'azzoliy ana shu davrda imom Juvayniyga usul-ul fiqhga oid "Manhul" nomli kitoblarining muqaddimasini taqdim qilganlar.

Abu Homid G'azzoliyning keying faoliyatlari haqida Alisher Navoiy o'zining asarida shunday yozadi: "To'rt yuz o'ttiz to'rtida Bag'dodga borib, dars aytdi va Iroq ahli barcha shefta va firifta bo'ldilar. Baland qadr poya topti. So'ngra borisin ixtiyori bila tark qildi va zuhdu inqito'tariqinilgar tutdi va haj azimati qildi va to'rt yuz sakson sakkizda hajg'a Musharraf bo'lub, Shomg'a murojaat qildi va andin so'ngra vatan azimati qildi va o'z holig'a mashg'ul bo'ldi va xalqdin xilvat ixtiyor qildi va mufid kitoblar ixtiyor qildi." Abu Homid G'azzoliy keyinchalik mudarrislikni tark etib, vaqtlarini Qur'on tilovati, irshod va nasihatga ajratdilar. Imom Gazzoliy hijriy 505, milodiy 1111-yilda haq ta'oloning huzuriga rihlat qildilar.¹

Ma'rifiy tuyg'uning nozik qirralarini kashf etihga sarflagan olim Abu Homid G'azzoliyning "Ihyou ulumid din" ("Din ilmlarini jonlantirish") asari alohida ahamiyatga molik asar hisoblanadi. Ushbu va haromni tanitadigan ulug' asar hisolanadi. Bu asardagi hukmlar va undagi masalalar qalblarga yo'naltirilgandir. "Islom olamidagi muqaddas hisoblangan Qur'on va Hadislar barcha sirlarning kaliti hisoblanadi. Ularga ergashish shariatga hisoblanganidek shariatga ergashish bu "Ihyou ulumid din" ga ergashishdir". - deydi buyuk olim Shayx Abdulloh Idris. Shayx Abdulloh Idris ushbu asarga "zamon ajabiyoti" deb ta'rif bergan.

Islom olamida durdona bo'lgan ushbu asar "Ibodatlari", "Odoblar", "Muhliqot", (halokatga olib boruvchi ofatlar) va "Munjiyot" (najotga eltuvchi amallar) deb nomlangan 4 ta katta qismga bo'lingan. Bu katta qismning har biri muhim mavzularni o'z ichiga olgan 10 ta kitobdan iborat.

Ushbu to'plamda "Ihyou ulumid din" ning "Muxliqot" va "Munjiyot" qismidan o'rin olgan "Tavba", "So'ngi manzil zikri", "Nafs tarbiyasi" va "Til ofatlari" degan kitoblar jamlangan. "Tavba" "Munjiyot" qismining birinchi kitobi bo'lib, unda tavbaning mohiyati, uning vojibligi va fazilatlari, kichik va katta gunohlar, tavbaning mukammallik shakllari, tavbasiz qalb dardining muolaja yo'llari kabi bir qancha mavzular zohir va botin jihatdan tadqiq qilingan.

"Odam farzandlarining barchasi ko'p xato qilguvchidir. Xato qilguvchilarning yaxshisi tavba qiluvchilaridir", - deb marhamat qiladi so'zlaguvchilarining eng rost-go'yi Rasululloh sallallohu alayhi vasallam. Demak, xato qilish, adashish bandaga xos tabiat. Undan qochib qutilishning iloji yo'q. Mavlono Jaloliddin Rumi aytdiganlaridek:

Zindagi omad baroyi bandagi,
Zindagi bebandagi sharmandagi.
Ya'ni: "Tiriklik shubhasiz bandalikdur,
Bandaliksiz tiriklik sharmandalikdur"

Darhaqiqat, banda borki, gunohdan holi emas, muhimi, sodir etilgan xatoni tan olish, uni o'z vaqtida tuzatish. Bu ish esa, faqat tavba bilangina amalga oshadi. Zero, Qur'oni Karimda zikr etilgan mavzularning barchasi jiddiy e'tiborga molik mavzulardir. "Tavba" aynan shunday markaziy mavzulardan biri desak, yanglishmaymiz.²

Tavba – bu faqatgina og'iz bilan aytiladigan so'z emas, balki insonning qalbidan kelgan chin dildan afsuslanish va gunohlarni takrorlamaslik uchun qat'iy qaror qabul qilish jarayonidir.

Islom ta'limotiga ko'ra, har bir musulmon o'z hayotini tahlil qilishi, xatolarini anglab yetishi va ularni tuzatish yo'lida harakat qilishi lozim. Shu sababli, G'azzoliyning tavba haqidagi ta'limotlari nafaqat o'tmishda, balki bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

¹ Alisher Navoiy "Nasoyim ul muhabbat" 120-b

² Abu Homid Gazzoliy "Ihyou ulu mid din" Rashid Zohid tj. "Matbaachi" TOSHKENT 2022. 152-b

Tavba soʻzi arab tilida "qaytish", "xatodan yuz oʻgirish" maʼnolarini anglatadi. Islomiy taʼlimotga koʻra, tavba qilish har bir musulmon uchun zarur boʻlib, Allohga yaqinlashishning eng muhim yoʻllaridan biridir. Gʻazzoliy taʼkidlaganidek, tavba chin yurakdan boʻlishi kerak va uch asosiy shartga ega: Birinchisi, gunohdan voz kechish – inson oʻzining qilgan xatolarini anglab yetishi va ularni tark etishga qatʼiy qaror qilishi lozim. Ikkinchisi, afsuslanish – gunoh ustidan chin dildan pushaymon boʻlish va oʻzini aybdor his qilish muhimdir. Uchinchisi, kelajakda gunohni takrorlamaslik – inson kelajakda bu xatolarni takrorlamaslik uchun oʻzini tarbiyalashi kerak. Gʻazzoliy fikricha, agar inson ushbu uch shartni bajarsa, uning tavbasi haqiqiy boʻladi va Alloh tomonidan qabul qilinadi. Tavba nafaqat inson va Alloh oʻrtasidagi munosabatni yaxshilaydi, balki uning ruhiy poklanishiga ham xizmat qiladi.

Imom Gʻazzoliy asarda tavba haqida shunday deydi: "Bilgilki, tavba 3 bosqichdan iborat.

Birinci bosqich ilm, ikkinchi bosqich hol va uchinchisi feʼl deyiladi. Bu bosqichlarning har biri oʻzidan keyingi bosqich uchun zaruratdir. Chunki Alloh taolo mulk va malakutga joriy etgan qonunidagi uzluksizlik shuni taqozo qiladi". Tavba qilish vojib amal hisoblanadi. Nadomat bilan qilingan tavba qalbni poklaydi. "Tavbaning bugun, kelajak, oʻtmishga bogʻliq jihatlari bor: mahubbdan toʻsuvchi gunohlarni bugun tark qilyapsan; mahubbdan ayiruvchi gunohga kelgusida minbaʼd qaytmaslikka azm etding;shu azm oʻtmishdagi xatoning oʻnglnishiga umid uygʻotadi."- deydi Abu Homid Gʻazzoliy "Ihyou ulumid din" asarida.Shuningdek, ilm toʻgʻrisida ham shunday degan u gunohlar tufayli sodir boʻlib, banda bilan uning suyuqli narsalari orasini toʻsadigan ulkan zararni anglash. Bu ulkan zararni toʻla anglagan kishi qalbiga gʻolib boʻladi. Bu anglash suyuqli narsasini boy bergan qalbda alam-ogʻriq paydo qiladi. Qalbda yoʻqotish hissi ortgani sayin alamning shiddati ham kuchayadi. Mahbubini oʻzining bir yomon feʼli sabab boy bergani uchun qalb afsus chekadi. Qalbning bu ogʻriqi - nadomat deyiladi. Ogʻriq ichkarini butunlay egallab olganidan soʻng qalbda iroda esa qasd deb atalgan oʻzgacha bir holat namoyoya boʻladi (qasd - gunohni tark etishni maqsad qilish, shu maqsad tomon qadam tashlash).

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf oʻzining"Iymon"nomli asarida tavba qilish toʻgʻrisida shunday degan, Alloh tavbaning qabul boʻlishiga ikkita shart qoʻygan:

Yomonlikni bilmagan holda qilish,

Tezda tavba qilish.

Ammo yomonlikni oʻziga odat qilib olgan va ajali yaqinlashganda tavba qilgan kishining tavbasi qabul boʻlmaydi. Bu haqda Niso surasida shunday deyilgan.

"Yomonliklarni qilib yurib birlariga oʻlim yetganda: "Endi tavba qildim", deganlarga va kofir hollarida oʻlganlarga tavba yoʻq. Ana oʻshalarga alamli azob tayyorlab qoʻyganmiz" (18-oyat)

³ Qurʼon Allohning magʻfiratiga erishish uchun tavba qilish bilan birga yaxshi amallar ham qilinishi kerakligini eslatadi.

Allohning magʻfiratiga erishish uchun osiylikdan tavba qilish kerak. Tavba qaytish demakdir. "Inson tavba qildi" degani "xatolardan, gunohlardan qaytdi, avval sodir etgan gunohlariga nadomat (afsus) qildi" deganidir. Qurʼon tavbaga katta ahamiyat berib, koʻpgina oyatlarda uni eslatib oʻtadi:"Kim zulmidan keyin tavba etsa va isloh qilsa, Alloh albatta tavbasini qabul qiladir. Albatta, Alloh oʻta magʻfiratlidir, oʻta rahmlidir" (Moida surasi, 39-oyat).

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.Iymon-T.:Hilol-Nashr”2025.276-279b.

Hech shubha yo'qki, «Hamma ishlarimni Alloh kuzatib turibdi», deya e'tiqod qiluvchi mo'min kishi hayoti davomida kam xato qiladi. Lekin gohida adashib, ba'zi bir noloyiq ishlarni qilib qo'ysa, darhol Allohni eslaydi, xatosini tan oladi, nadomat chekadi, istig'for aytib, bu ishni ikkinchi bor takrorlamaslikka ahd qiladi. Islomda gunohni yuvish uchun din arboblari huzurida uni e'tirof etish (tan olish)ning hojati yo'q. Shuningdek, «qilgan gunohi kishiga doimo yopishib yuradi, undan qochib qutulib bo'lmaydi» degan e'tiqod ham yo'q. Har bir musulmon bevosita Allohga duo qilib, o'z nadomatini izhor qilib, gunohidan o'tishini so'rash imkoniga ega. Qur'oni Karimda shunday deyilgan:

"Kim bir yomonlik qilsa yoki o'ziga zulm etsa, so'ngra Allohdan mag'firat so'rasa, Allohning o'ta mag'firatli, o'ta rahmli ekanini topadir" (Niso su- Basi, 110-oyat)

Imom Buxoriy rivoyat qilgan. Musulmon kishi «Alloh barcha gunohlarni kechadi, men haqiqiy tavba qilsam, qabul qiladi», deb qat'iy ishonmog'i lozim. Hozirgi kunda tibbiyot ilmi muhtoj bo'lib turgan asab kasalliklarini davolash vositala-ridan eng kuchlisi ham ana shu. Psixolog olimlar, xu-susan mashhur Freyding fikricha, asab kasallikla-rining asosiy sababi ruhiy tushkunlik bo'lib, uning davosi faqat asab kasalliklari bo'yicha mutaxassis kishining oldida o'z xatolarini tan olish bilan bo'ladi.»

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, bu narsa ruhiy, mantiqiy bir ish bo'lib, bemorning xatolarini ochib tashlaydi, u o'z xatolarini ko'rib, his qiladi. Shunda uning ruhi bilan vijdoni orasida o'zaro kelishuv paydo bo'ladi. Vijdon kechiradi, inson esa o'z ruhi oldida o'zini musaffo his qiladi, shu bilan asabiy tugun yo'qoladi.

Xulosa qilib aytganda, Imom G'azzoliyning tavba haqidagi qarashlarida din va axloq masalalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda talqin qilinadi. Alloma tavbani faqatgina gunohdan qaytish jarayoni sifatida emas, balki insonning ichki dunyosini poklash, qalbini tarbiyalash va axloqiy kamolotga erishish yo'li sifatida izohlaydi. Shu jihatdan tavba insonni nafaqat diniy burchlarini bajarishga, balki pok niyat, halollik, sabr-toqat va mas'uliyat kabi yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga ham undaydi. Asarda din inson hayotining ma'naviy asosini belgilasa, axloq esa uning kundalik xulq-atvorida namoyon bo'ladigan amaliy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Tavba orqali inson o'z xatolarini anglaydi, o'zini tahlil qiladi va yaxshilik sari intiladi. Bu jarayon esa diniy e'tiqod bilan axloqiy poklanishning uyg'unligini yaqqol ko'rsatadi.

Demak, Imom G'azzoliyning tavba haqidagi ta'limoti shuni anglatadiki, haqiqiy tavba inson qalbini poklabgina qolmay, uning axloqini ham yuksaltiradi. Natijada din va axloq bir-birini to'ldiruvchi, insonni komillikka yetaklovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli allomaning bu qarashlari bugungi kunda ham insonning ma'naviy kamoloti va jamiyat axloqiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Homid G'azzoliy "Ithou ulumid din" Rashid Zohid tarjimasi./ "Matbaachi" nashriyoti. Toshkent,2022.-3 b
2. Alisher Navoiy "Nasoyim ul Muhabbat" .www.ziyouz.com kutubxonasi 120-bet
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Iymon-T. : "Hilol-Nashr",2025.276-279b
4. <https://scientific-jl.com/uuc/issue/view/185>
5. <http://www.doi.org/10.5281/zenodo.10551157>